

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

“IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT” FANIDAN

KURS ISHI

Mavzu: Korxona faoliyati ko'rsatkichlari tahlili



Bajardi: Muminxodjayev S.

Guruh: AKTSIM 110-12

Tekshirdi: Achilova S.

TOSHKENT 2014

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Variant	4
Birinchi topshiriq.....	6
Ikkinchi topshiriq	8
Uchinchi topshiriq	12
To'rtinchi topshiriq	15
Beshinchi topshiriq	17
Oltinchi topshiriq	19
Yettinchi toshiriq	21
Foydalanilgan adabiyotlar	26

Kirish

Bozor munosabatlariga asoslangan xo'jalik sub'ektlari (korxonalar, tashkilotlar, firmalar) mulkni tasarruf etuvchisi sifatida uni to'g'ri boshqarishdan manfaatdordirlar. Bu esa, sodir bo'layotgan jarayonlarni va hodisalarni doimo kuzatishni, faoliyat natijaviyligini batafsil o'rganishni talab etadi. Shu jihatdan xo'jalik sub'ektlari faoliyatini boshqarishning muhim vositasi bo'lgan iqtisodiy tahlil o'ta ahamiyatli hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlilning asosiy mazmuni bozor iqtisodi hamda qonunlaridan foydalangan holda korxonalarda, uning tarmoqlari hamda tarkibiy bo'limlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida imkoniyatlar axtarib topish va ulardan samarali foydalanish yo'llarini aniqlashdir. Fan-texnika taraqqiy qilgan hozirgi sharoitda korxonalarning xo'jalik faoliyatini chuqur va har tomonlama tahlil qilmay turib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin emas. Iqtisodiy tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini qidirib topish va ulardan foydalanish imkonini beradi. Iqtisodiy tahlilni chuqur bilish rahbar xodim va mutaxassislardan o'zishlaridagi yangilik va xatolarni topa bilishlariga, kelgusida bu xatolarni takrorlamaslikka, ichki xo'jalik imkoniyatlarini topib, ularni ishlab chiqarishga tezkor safarbar qilishga yordam beradi.

Iqtisodiy tahlilning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- Korxonaning iqtisodiy ahvolini har tomonlama o'rganib, uning holatiga aniq va holisona baho berish;
- Mablag' va uning manbalarining joylanishini tekshirish, ularning to'g'ri yo'lda ishlatilganini aniqlash;
- Hisoblashish ishlarining o'z muddatida bajarilganini o'rganish;
- Korxonaning o'ziga qarashli mablag'lari bilan qarz mablag'lari orasidagi nisbati va aylanma mablag'larining manba bilan ta'minlanganligini tekshirish;
- Iqtisodiy intizomga qanchalik amal qilishni va to'lov qobiliyatiga baho berish;
- Korxona mulkining qadrliligi va tez pulga aylana olish darajasini o'rganish;
- Aylanma mablag'lardan foydalanishga baho berish va korxonaning iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo'yicha takliflar bayon etish va h.k

Tahlilning asosiy maqsadi – iqtisodiy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag'lardan yanada to'g'ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratilgan.

Iqtisodiy tahlilning predmeti bu korxonalarda ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'siri ostida sodir bo'ladigan, iqtisodiy axborotlar sistemasi orqali ko'rinadigan xo'jalik jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik va korxona faoliyatini yakuniy natijalarini o'rganishdan iboratdir.

Iqtisodiy tahlilning ob'ekti bo'lib, respublikamizdagi barcha ishlab chiqarish korxonalari, xizmat ko'rsatish tarmoqlari vaqo'shma korxonalar hisoblanadi. Bu ob'ektlar

iqtisodiy asosi jihatidan davlat, jamoa, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko'rsatadigan ob'ektlarga bo'linadi.

Iqtisodiy tahlilning sub'ekti esa shu korxonada tashkil etilgan iqtisodiy tahlil byurosi, xo'jalikni boshqarish organlari, krredit, moliya, statistika va soliq tashkilotlari, kengash va kasaba uyushmasi tashkilotlari va hokazolarni o'z ishiga oladi.

15 - variant

Aloqa korxonalari ishlab chiqarish faoliyatining ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich nomi	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi(+,-)	O'zgarish sur'ati (%)
1	Asosiy faoliyatdan daromad (ming so'm)	14924500	21320600	+6396100	142.86
2	Shtat soni (odam)	93100	91800	-1300	98.60
3	Asosiy vositalarning yillik qiymati (ming so'm)	18426400	21233000	+2806600	115.23
4	Aylanma mablag'lar (ming so'm)	552700	636900	+84200	115.23
5	Aholi soni (ming odam)	2407800	2698800	+291000	112.09
6	Ishlab chiqarish tannarxi (ming so'm)	5003100	6164200	+1161100	123.21
7	Ish haqi fondi (ming so'm)	2158500	2645300	+486800	122.55
8	Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar (ming so'm)	857100	956500	+99400	111.60
9	Amortizatsiya (ming so'm)	386700	456400	+69700	118.02
10	Xom ashyo materiallar (ming so'm)	198600	256100	+57500	128.95
11	Elektro energiya (ming so'm)	381500	545400	+163900	142.96
12	Ta'mirlash fondi (ming so'm)	344900	456300	+111400	132.30
13	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari (ming so'm)	417000	523000	+106000	125.42
14	Transport xarajatlari (ming so'm)	258800	325200	+66400	125.66
15	Davr xarajatlari (ming so'm)	6223300	5594600	-628700	89.90
16	Ma'muriy boshqaruv xarajatlari (ming so'm)	1165400	1064900	-100500	91.38
17	Operatsion xarajatlari (ming so'm)	2454500	2184700	-269800	89.01
18	Tannarxga kiritiladigan soliqlar (ming so'm)	2603400	2345000	-258400	90.07

19	Moliyaviy xarajatlar (ming so'm)	80100	65300	-14800	81.52
20	Operatsion xarajatlar (ming so'm)	-	214900	+214900	
21	Moliyaviy daromad (ming so'm)	-	3785300	+3785300	
22	O'zgaruvchan xarajatlar (ming so'm)	5787700	4647900	-1139800	80.31
23	O'zgarmas xarajatlar (ming so'm)	4647900	4647900	0	100

Birinchi topshiriq

Hisobot davridagi asosiy hajm ko'rsatkichlari reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanishdan iborat. Bu ma'lumotlar asosida aloqa korxonalari iqtisodiyoti rivojlanishiga (intensiv yoki ekstensiv yo'li bilan) baho beriladi.

Avvalambor ekstensiv yoki intensiv o'sishga tarif berish lozim. Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'rtasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarning quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchining soni va malaka tarkibi bo'yicha huddi o'shanday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanishda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot ishlab chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalarini va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'li bilan erishiladi. Intensiv yo'l ishlab chiqarishga jalb etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samaraning, pirovard mahsulot miqdorining o'sishida, mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda, alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, bir-biri bilan qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi.

Daromadlar - bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko'payishi shaklida o'sishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan farq etuvchi o'sishiga olib keluvchi kamayishidir.

Topshiriqning yechimi.

1 kishiga to'g'ri keladigan aloqa korxonalarining xizmatlari darajasi ko'rsatkichi hisobi

1 kishiga to'g'ri keladigan aloqa korxonalarining xizmatlari darajasi ko'rsatkichi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$U=D/A$$

Bu erda:

A - aholi soni; **D** - daromad

1-jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	To'g'irlan gan ko'rsat- kich	Farqi		O'zgarish	
					(+;-)	%	Daromad (4-2)	Aholi (3-4)
1	Asosiy faoliyatdan daromad (ming so'm)	14924500	21320600	2132060 0	+639610 0	142.86	+6396100	
2	Aholi soni (ming so'm)	2407800	2698800	2407800	+291000	112.09		+291000
3	1 kishiga tog'ri keladigan aloqa korxonalarining xizmatlari (so'm/odam)	6,20	7,90	8,85	1,70	127,42	2,65	-0,95

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari asosida ma'lum bo'ladiki, o'tgan yili bir kishiga to'g'ri keladigan aloqa korxonalarining xizmatlar darajasi 6,20 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yili bu ko'rsatkich 7,90 so'mni tashkil qilgan. Bu har bir kishiga to'g'ri keladigan aloqa korxonasining xizmati 1,70 so'mga ya'ni 27,42% ga oshganini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichga ta'sir qiluvchi ikkita omil ya'ni korxonaning asosiy faoliyatdan olgan daromadi va aholi soni mavjud. Bu natijaga ta'sir qiluvchi ikki omilning qanchalik ta'sir qilganini ko'rish uchun to'g'irlangan ko'rsatkichdan foydalanamiz. Agar aholi soni o'zgarmasdan daromad shunday ijobiy ko'rsatkich bilan chiqqanda 1 kishiga tog'ri keladigan aloqa korxonalarining xizmatlari 2,65 ga oshgan bo'lar edi. Lekin to'g'irlangan ko'rsatkich yordamida aniqlandiki, aholi sonining 291000ga ko'payganligi 1 kishiga to'g'ri keladigan xizmatlar darajasi ko'rsatkichini 0,95 so'mga pasaytirgan.

Ikkinchi topshiriq

Oldingi topshiriqda qilingan xulosalar chuqurlashtiriladi. Buning uchun aloqa korxona ma'lumotlari asosida bir qator ko'rsatkichlar hisobalanadi.

Bu topshiriqni bajarish uchun avvalambor asosiy vositalar va aylanma mablag'lar tushunchasiga ta'rif berish lozim. **Asosiy fondlar (vositalar)** ishlab chiqarishning muhim omili sifatida qaralib, ular vositasida bevosita mehnat predmetlari va mehnat kuchlari birikuvida mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar bajariladi va xizmatlar ko'rsatiladi. **Asosiy fondlar deb** ishlab chiqarish siklida bir necha bor qatnashib o'zining qiymatini yaratilayotgan mahsulotlarga qisman-qisman o'tkazuvchi hamda jismoniy shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalariga aytiladi.

Ikkinchi topshiriqda quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlab, tahlil o'tkazish lozim.

1. Mehnat unumdorligi - ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich, uni oshirish - iqtisodiy o'sishning asosiy omilidir. Mahsulot hajmini oshirishda mehnat unumdorligini ulushi yuqoridir. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

$$\downarrow \text{Mu} = D/SH$$

2. Fond qaytimi - tahlil qilinayotgan davrda (odatda, bir yilda) ishlab chiqarilgan (sotilgan) mahsulotdan olingan daromadni, ular o'rtacha yillik qiymatiga nisbati shaklida quyidagi formula orqali topiladi:

$$\downarrow \text{Fq} = D/Av$$

3. Fond sig'imi - asosiy vositalar fond qaytimiga teskari bo'lgan ko'rsatkich va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\downarrow \text{Fs} = 1/\text{Fq} \text{ yoki } Av/D$$

4. Asosiy vositalar bilan qurollanganlik ko'rsatkichi - asosiy ishlab chiqarish fondlari qiymatining (boshlang'ich baholanishi bo'yicha) shtatdagi ishchilar soniga nisbatidir. U ishchilarning mehnat qurollari (asosiy vositalar) bilan ta'minlanganlik darajasini aks ettiradi va quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\downarrow \text{Avq} = Av/Sh$$

2- jadval

№	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati (%)
1.	Asosiy faoliyatdan daromad	Ming so'm	14924500	21320600	+6396100	142.86
2.	Shtat soni	Ming odam	93100	91800	-1300	98.60
3.	Mehnat unumdorligi	So'm/odam	160.31	232.25	+71.94	144.87
4.	Asosiy vositalarning o'rta yillik qiymati	Ming so'm	18426400	21233000	+2806600	115.23
5.	Fond qaytimi	So'm/so'm	0.81	1.01	+0.20	124.69
6.	Fond sig'imi	So'm/so'm	1.23	0.99	-0.24	80.49
7.	Asosiy vositalar bilan qurollanganlik ko'rsatkichi	Odam/so'm	197.92	231.30	+33.38	116.86

2-jadval ma'lumotlariga asosan ma'lum bo'lishicha, mehnat unumdorligi hisobot yili basis yiliga nisbatan 44.87% ga o'sgan bo'lib, hisobot yili o'tgan yilga nisbatan 71.94 ga farq qilayapti. Mehnat unumdorligi darajasiga turli xil omillar ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. Bulardan asosiylari, ishchi va xizmatchilarning malakasi, ularning yangi unumli texnika, texnologiya bilan qurollanganligi va mehnat intizomidir.

Jadval ma'lumotlaridan asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlarining yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda fondlarning qaytarilish ko'rsatkichi 124.69% ga ko'paygan. Yani asosiy fondlarga sarflangan har bir so'm basis yilda 0.81 so'm olib kelgan bolsa, hisobot yilida bu ko'rsatkich 1.01 so'mni tashkil qilgan.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarini samarali ishlatish foydani qaytarilish ko'rsatkichini ko'tarilishi va fondlar sig'imi ko'rsatkichini kamaytirish bilan bog'liqdir. Shu yo'nalishni bizning aloqa korxonamizda ham ko'rishimiz mumkin. Fondlarning qaytarilish ko'rsatkichi ko'paygan bo'lsa, fondlarning hajmlilik ko'rsatkichi pasaygan. Bu ko'rsatkich basis yili 1.23 ni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yili u 0.99 ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkich asosiy vositalarning o'rta yillik qiymati o'tgan yilga nisbatan hisobot yilida 2806600 ming so'mga oshganligi hamda asosiy faoliyatdan daromadning 6396100 ming so'mga oshganligi hisobiga ko'paygan.

Xo'jalik faoliyatida turli xil vaziyatlarni ko'rishimiz mumkin. Bunga yorqin misol sifatida korxonamizning asosiy fondlar bilan qurollanganlik ko'rsatkichini olishimiz mumkin. Hisobot davrida bu ko'rsatkich 116.86 foizga yetgan, yani har bir

ishchiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar miqdori 197.92 so'mdan hisobot yili 231.30 so'mga ko'paygan. Bu hisobot yili asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati va shtat sonining ko'payganligi bilan asoslanishi mumkin.

Korxonaning aylanma mablag'lari - uning aylanma fondlarda, muomala fondlarida va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir. Ular asosiy fondlardan farqli o'laroq, to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Chunki, bir ishlab chiqarish sikli mobaynida to'liq iste'mol qilinadi, o'z qiymatini tayyor masulohtga o'tkazadi, ham buyum-natura ko'rinishida, ham qiymat tarzida tiklanadi. Ularning ulushi korxonaning umumiy xo'jalik mablag'larida faoliyat sohasiga qarab, 60 foizdan 90 foizgacha bo'ladi. Aloqa sohasidagi barcha korxonalarida esa aylanma mablag'larning ulushi 5-8% atrofida bo'ladi. Shunga qaramasdan, aylanma mablag'lardan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega.

Aylanish koeffisienti (marta): Aylanish koeffisienti yil mobaynida aylanma mablag'lar tomonidan amalga oshirilgan aylanishlar sonini ko'rsatadi.

$$AYk=D/AM$$

Aylanma mablag'larning aylanish davomiyligi (kunlarda): Bir aylanish davomiyligi ko'rsatkichi aylanma mablag'larning bir marta to'lik aylanishi uchun ketadigan kunlar sonini tavsiflaydi.

$$AMyu=360xAM/D$$

Aylanma mablag'larning yuklanish ko'rsatkichi: Aylanma mablag'larning yuklanganlik koeffitsienti. Bu ko'rsatkich bir so'm daromad olish uchun ishlatilgan aylanma vositalar mikdorini ko'rsatadi.

$$AYyu=AM/D$$

3 –jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	O'tgan yili	Hisobot yili	Farq(+, -)	O'zgarish sur'ati (%)
1.	Daromad	Ming so'm	14924500	21320600	6396100	142.86
2.	Aylanma mablag'lar	Ming so'm	552700	636900	84200	115.23
3.	Aylanish koeffitsienti	Marta	27	33.48	+6.48	124
4.	Aylanish davomiyligi	Kun	14.4	10.8	-3.6	75
5.	Yuklanish ko'rsatkichi	Ming so'm	0.04	0.03	-0.01	75

Yuqoridagi 3- jadval asosida aylanma mablag'lar koeffitsientlari haqida quyidagilarni aytishimiz mumkin. Bunda aloqa korxonamizning aylanish koeffitsienti bir muncha ijobiy ko'rsatkichni ko'rsatganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Korxonamizda aylanish koeffitsienti o'tgan yili 27 bo'lgan bo'lsa, hisobot yili 33.48 ni ko'rsatib yil davomida 6.48 ga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa aylanma mablag'larning hisobot yilida basis yiliga nisbatan ko'proq aylanganligidan dalolat beradi.

Aylanish davomiyligi aylanish koeffitsienti ko'payganligi hisobiga kamaygan. Basis yilida aylanish davomiyligi 14.4 kunni tashkil qilgan bo'lsa, hisobot yilida esa bu ko'rsatkich 3.6 kunga kamayib 10.8 kunni tashkil qilgan. Bundan bilishimiz mumkinki, o'tgan yilga nisbatan 3.6 kun tezroq aylangan.

Aylanma mablag'larning yuklanganligi ko'rsatkichida biz o'tgan yili korxona har bir so'm olish uchun 0.04 so'm sarflagan bo'lsa, hisobot yilida har bir so'm daromad olish uchun 0.03 so'mlik aylanma mablag' sarf qilganini ko'ramiz, bu basis yilga nisbatan 25 % kamdir. Demak, aylanma mablag'larning yuklanganligi ko'rsatkichi anchagina ijobiy ko'rsatkichni ko'rsatgan.

Uchinchi topshiriq

Foyda va rentabellik ko'rsatkichlariga omillarning ta'sirini aniqlash.

Ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish darajasini, shuningdek korxona xizmatlar ko'rsatish faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarda biri foyda ko'rsatkichi hisoblanadi. Topshiriqda birinchi o'rinda ma'lumotlar asosida foyda ko'rsatkichlarni aniqlash zarur.

- ✓ **Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda** = Sof tushum - Hizmatlarning tannarhi;
- ✓ **Asosiy faoliyatdan foyda** = Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda - Davr harajatlari + Boshqa daromadlar - Boshqa Xarajatlar;
- ✓ **Umumxo'jalik faoliyatdan foyda** = Asosiy faoliyatdan foyda + Moliyaviy faoliyatdan foyda - Moliyaviy faoliyatdan zarar;
- ✓ **Daromad solig'i to'lagunga qadar foyda** = Umumxo'jalik faoliyatdan foyda + Favqulotda foyda - Favqulotda zarar;
- ✓ **Sof foyda** = Daromad solig'i to'lagunga qadar foyda - Daromad solig'i - Boshqa soliqlar va to'lovlar;

Rentabellik darajasi bu ishlab chiqarish fondlar birligiga keladigan foyda miqdori. Rentabellik ulushi bu ishlab chiqarish intensivligi ko'rsatkichi. Foyda va rentabellik korxona faoliyatining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari va bularga ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Rentabellik darajasi hisobi yordamida korxona ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligiga baho berish mumkin. Umumiy rentabellik darajasi quyidagicha hisoblanadi.

$$\bullet R = (\text{xizmatlar ko'rsatishdan foyda} / \text{jami xo'jalik mablag'lari}) \times 100\%$$

$$\bullet R = (\text{Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda} / \text{Sof tushum}) \times 100\%;$$

Xizmatlarning tannarxi korxona faoliyatining umumiy ko'rsatkichlaridan biri. Bugungi kunda aloqa korxonalariga yiriklashtirilgan birlamchi ko'rsatkichlar hisoblanadi – 100 so'm daromadning tannarxi;

$$\downarrow T = Ex \times 100 / D$$

Bu yerda: T – 100 so'm daromatlarning tannarxi, Ex – eksplutatsion xarajatlar.

4 – jadval

№	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)	O'zgarish sur'ati
1.	Ishlab chiqarish tannarxi	Ming so'm	5003100	6164200	+1161100	123.21
2.	Asosiy faoliyatdan daromad	Ming so'm	14924500	21320600	+6396100	142.86
3.	Qo'shilgan qiymat solig'i	Ming so'm	2487417	3553433	+1066016	142.86
4.	Sof tushum	Ming so'm	12437083	17767167	+5330084	142.86
5.	Xizmat ko'rsatishdan yalpi foyda	Ming so'm	7433983	11602967	+4168984	156.08
6.	Davr xarajatlari	Ming so'm	6223300	5594600	-628700	89.90
7.	Boshqa xarajatlar	Ming so'm	-	214900	+214900	-
8.	Asosiy faoliyatdan foyda	Ming so'm	1210683	6008367	+4797684	496.28
9.	Moliyaviy faol foyda	Ming so'm	-	3785300	+3785300	-
10.	Moliyaviy faol zarar	Ming so'm	80100	65300	-14800	81.52
11.	Umumxo'jalik faoliyatidan foyda	Ming so'm	1130583	9728367	+8597784	860.47
12.	Daromad solig'i tolaganga qadar foyda	Ming so'm	1130583	9728367	+8597784	860.47
13.	Daromad solig'i	Ming so'm	101752.47	875553.03	+773800.56	860.47
14.	Boshqa soliqlar va to'lovlar	Ming so'm	-	-	-	-
15.	Sof foyda	Ming so'm	1028830.53	8852813.97	+7823983.44	860.47
16.	Jami xo'jalik mablag'lari	Ming so'm	18979100	21869900	+2890800	115.23
17.	Rentabellik I	%	39.17	53.05	+13.88	135.43
18.	Rentabelik II	%	59.77	65.31	+5.54	109.27
19.	Eksplutatsion xarajatlar	Ming so'm	11226400	11758800	+532400	104.74
20.	T-100so'm daromad tannarxi		75.22	55.15	-20.07	73.32

4 – jadval ma'lumotlari asosida aloqa korxonamiz faoliyati haqida quyidagi ma'lumotlar ma'lum bo'ladi. Korxonamizning xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foydasi o'tgan yilga nisbatan 4168984 mingga oshgan ya'ni 56.08 %ga o'sgan. Buni sof tushumning joriy yili 5330084mingga ya'ni 42.86% ga oshgani hamda ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi esa o'tgan yilga nisbatan 1161100 ming ya'ni 23.21%ga oshganligi bilan asoslanadi.

Aloqa korxonamizning joriy yildagi asosiy faoliyatdan foydasi 6008367 ming so'mni tashkil etgan, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan juda ham yuqori ko'rsatkichga kelgan ya'ni 4797684 ming , 396.28%ga ortgan.

Korxonaning o'tgan yildagi umumxo'jalik faoliyatidan foydasi 1130583 ming so'mni, joriy yilda esa bu ko'rsatkich 9728367 mingga yetib, yirik ijobiy o'zgarishga olib kelgan ya'ni joriy yilda 760.47%ga oshib ketgan. Bunga asosiy sabab moliyaviy faoliyatdan foyda 3785300 mingni tashkil qilgan.

Aloqa korxonamizda favqulotda foyda va zarar bo'lmaganligi tufayli daromad solig'i to'lagunga qadar bo'lgan foyda umumxo'jalik faoliyatidan foyda bilan teng bo'ladi, yani ko'rsatkichlar o'zgarmaydi.

Korxonaning barcha soliqlar to'lab bo'lgandan keyingi sof foydasi 1028830.53 mingni tashkil qilgan. Bu esa o'tgan yilning sof foydasidan 7823983.44 ming ya'ni 760,47 % ga ortiqdir.

Hisobot yili aloqa korxonamizning rentabellik darajasi 13.88% ga oshgan. Bunga sabab esa joriy yilda korxonaning xizmat ko'rsatishdan yalpi foydasi 56.08% ga oshgani, hamda jami xo'jalik mablag'lari joriy yilda 15.23% ga oshganidir.

Joriy yili sof tushumga nisbatan rentabellik 9.27% ga oshgan. Bunga sabab hisobot yili sof tushumning 5330084 mingga hamda xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foydaning 4168984 mingga o'sganligidir.

To'rtinchi topshiriq

Korxona ishlab chiqarish faoliyatining intensivligini tavsiflaydigan ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Asosiy faoliyatdan olingan foydaga mehnat unumdorligi o'sishi ta'sirini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\downarrow \Delta D_{mu} = (Mu_2 - Mu_1) \times Ic_2$$

Bu erda Mu - mehnat unumdorligi hisobot va o'tgan yilda, Ic_2 - hisobot davridagi ishchilar soni.

$$\downarrow d = (Mu_2 - Mu_1) \times Ic_2 / (D_2 - D_1) \times 100\%$$

Korxonada ishchilarning soni absolyut kamaygan holda daromad o'sishi mehnat unumdorligi tufayli sodir bo'lgan va keltirilgan ko'rsatkichlar hisoblanmaydi. Mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga ishchilar soni shartli kamayish soni hisobiga loyiq. Ushbu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi:

$$\downarrow \Delta Issh = D_2 / Mu_1 - Ic_2$$

Bu erda D_2 - hisobot davridagi daromad, Mu_1 - o'tgan yildagi mehnat unumdorligi, Ic_2 - hisobot davridagi ishchilar soni.

$\Delta Issh$ ko'rsatkichi shartli deb hisoblanadi, chunki bu erda hisobot yildagi mehnat unumdorligi o'tgan yili darajasida saqlangan holda asosiy faoliyatdan daromad olish uchun qo'shimcha ishchilar sonini ifodalaydi.

Mehnati unumdorligi shuningdek, xizmatlar tannarxiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ushbu ijobiy ta'sir, ya'ni mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga xizmatlar tannarxi kamayishi faqat mehnat unumdorligi o'sish darajasi o'rtacha ish haqi o'sish darajasidan katta bo'lgan holda sodir bo'lishi mumkin. Bunda 100 so'm daromadlarga to'g'ri keladigan ish haqi harajatlari kamayadi.

Xizmatlar tannarxida ish haqi ulushi qancha ko'p bo'lsa, shuncha tannarxi kamayishiga mehnat unumdorligining ta'siri katta bo'ladi. Buni quyidagi formula orqali aniqlansa bo'ladi:

$$\downarrow \Delta Ic = (1 - Ii / I_{mu}) d o \%$$

Ic - tannarxi kamayishi

Ii - o'rtacha ish haqi indeksi

I_{mu} - o'rtacha mehnat unumdorligi indeksi

Do - hisobot davridagi eksplutatsiya xarajatlari ish haqining ulushi

$$do = \frac{\frac{I.h.f_2}{Ex_2}}{\frac{I.h.f_1}{Ex_1}}$$

Bu yerda:

I.h.f1-ish haqi fondi o'tgan yil

I.h.f2-ish haqi fondi joriy yil

Ex1,2-o'tgan va joriy yildagi ekspluatatsion xarajatlar

$$Ii = \frac{\frac{I.h.f_2}{Sh_2}}{\frac{I.h.f_1}{Sh_1}}$$

Bu yerda:

I.h.f1-ish haqi fondi o'tgan yil

I.h.f2-ish haqi fondi joriy yil

Sh1,2-o'tgan va joriy yildagi ishchilar soni

$$I_{mu} = \frac{\frac{D_2}{Sh_2}}{\frac{D_1}{Sh_1}}$$

Bu yerda:

D2-joriy yildagi daromad

D1-o'tgan yildagi daromad

Sh1,2-o'tgan va joriy yildagi ishchilar soni

5-jadval

№	Ko'rsatkich	O'lov birligi	Hisobot yili
1.	Asosiy faoliyatdan olingan foydaga mehnat unumdorligi o'sishi ta'siri	Ming so'm	6604092
2.	Daromad	Ming so'm	21320600
3.	Mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga ishlar soni shartli kamayish soni Δ Ic ko'rsatkichi	Kishi	41196
4.	O'rtacha ish haqi indeksi		1.24
5.	O'rtacha mehnat unumdorligi indeksi		1.45
6.	Xizmatlar tannarxida ish haqining ulushi		16.8

Asosiy faoliyatdan olingan foydaga mehnat unumdorligi o'sishi ta'siri 6604092 ni tashkil qilgan. Bunga mehnat unumdorligining hisobot yilida 44.87%ga o'sishi va shtat sonining 1.40% ga kamayganligi o'z tasirini ko'rsatgan. Bundan bilishimiz mumkinki, korxonamizning shtat soni 1300 mingtaga kamayishi sababli mehnat unumdorligi 44.87%ga ko'paygan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxona hodimlari o'z ishini yaxshi bajarishgan hamda rahbar tomonidan mehnat to'g'ri taqsimlangan yoki xizmat ko'rsatish jarayoni avtomatlashtirilgan.

Korxonaning mehnat unumdorligi o'sishi hisobiga ishchilar sonini shartli kamayish soni 41196 kishini tashkil etgan. Bu hozirgi daromadni olish uchun 41196 kishi yetarli bo'ladi degani.

Mehnat unumdorligi shuningdek, xizmatlar tannarxiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Xizmatlar tannarxida ish haqi ulushimiz 16.8% ni tashkil qilgan.

Beshinchi topshiriq

Xizmatlar tannarxi tahlilida harajatlarning alohida elementlari va moddalari bo'yicha ko'rib chiqiladi. Xarajatlar moddalari bo'yicha xizmatlar tannarxining o'zgarishini indeks usuli asosida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\Delta I_j = (I_j / I_d - 1) d_j \%$$

Bu yerda:

ΔI_j – j xarajat moddasi tufayli tannarx o'zgarishi %;

I_j – j xarajat moddasining dinamika indeksi;

I_d – daromadning dinamika indeksi;

D_j – o'tgan yildagi tannarxda xarajat moddasining ulushi.

6-jadval

№	Ko'rsatkich	O'tgan yili	Hisobot yili	J xarajat moddasining dinamika indeksi	O'tgan yildagi tannarxda j xarajat moddasining ulushi	J xarajat moddasi tufayli tannarxi o'zgarishi %
	1	2	3	4=3/2	5	6
				Ij	Dj	Δ Ij
1.	Ish haqi fondi	2158500	2645300	1.22	19,23	-2,75
2.	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	857100	956500	1.12	7,63	-1,68
3.	Amortizatsiya	386700	456400	1.18	3,44	-0,60
4.	Xom-ashyo materiallar	198600	256100	1.29	1,77	-0,17
5.	Elektro energiya	381500	545400	1.43	3,40	0,00
6.	Ta'mirlash fondi	344900	456300	1.32	3,07	-0,23
7.	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	417000	523000	1.25	3,71	-0,46
8.	Transport xarajatlari	258800	325200	1.26	2,31	-0,28
9.	Ma'muriy boshqaruv xarajatlari	1165400	1064900	0.91	10,38	-3,75
10.	Operatsion xarajatlar	2454500	2184700	0.89	21,86	-8,25
11.	Tannarxga kiritiladigan soliq	2603400	2345000	0.90	23,19	-8,58
12.	Jami	11226400	11758800	1.05	100	-26,75
13.	Asosiy faoliyatdan daromad	14924500	21320600	1.43		

Xizmatlar tannarxi tahlilida xarajatlarning alohida elementlari va moddalari bo'yicha ko'rib chiqiladi. Shunga ko'ra j xarajat moddasining dinamika indeksini topish uchun joriy yildagi qiymatini o'tgan yildagi qiymatiga nisbatini olish orqali hisoblanadi. Hisobot davridagi tannarxda j xarajat moddasining ulushi esa har bir xarajat moddasini ekspluatatsion xarajatlarga bo'lish orqali topiladi. Ko'rsatkichlarni

hisoblash natijasida biz j xarajat moddasi tufayli tannarx o'zgarishini hisoblab chiqamiz. Bunga ko'ra aloqa korxonasida faqatgina elektro – energiya xarajatlari o'zlagmagan. Bunga sabab ushbu ko'rsatkichni joriy yilda o'tgan yilga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni ko'rsatganligidir. Ammo korxonada ish haqi fondi, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, amortizatsiya, xom – ashyo materiallar, ta'mirlash fondi, boshqa ishlab chiqarish xarajatlari, transport xarajatlari, ma'muriy boshqaruv xarajatlari, operatsion xarajatlar, tannarxga kiritiladigan soliqlar ko'rsatkichi kamayganligi tufayli jami tannarx o'zgarishi 26.75 ga kamaygan.

100 so'm daromadlarning tannarxi kamayishi tufayli ekspluatatsion xarajatlarning iqtisodi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Es = D2 \times \Delta T = D2 \times (T2 - T1), \text{ so'm}$$

Bu yerda:

D2 – hisobot davridagi daromad,

ΔT – hisobot davrida 100 so'm daromadlarning tannarxi o'zgarishi,

T2, T1 – hisobot va o'tgan yildagi 100 so'm daromadlarning tannarxi.

7-jadval

Hisobot davridagi daromad	O'tgan yildagi 100 so'm daromadlarning tannarxi	Hisobot yildagi 100 so'm daromadlarning tannarxi	Hisobot davrida 100 so'm daromadlarning tannarxi o'zgarishi		100 so'm daromadlarning tannarxi kamayishi tufayli ekspluatatsion xarajatlarning iqtisodi
			+/-	%	
21320600	75.22	55.15	-20.07	73.32	427904442

7-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 100 so'm daromadlarning tannarxi bu joriy yida o'tgan yilga nisbatan 20.07ga ya'ni, 26.68%ga kamaygan. Buning natijasida 100 so'm daromadning tannarxi kamayishi tufayli iqtisod qilingan ekspluatatsion xarajatlar 427904442 so'mni tashkil etgan.

Oltinchi topshiriq

Korxona zararsizlik tahlili o'tkaziladi, ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining foydaliligiga, moliyaviy mustahkamlik zaxirasi asosida rejalashtirishga, inqirozlikdan chiqib ketish optimal yo'lini tanlashga baho beriladi.

Zararsizlik tahlili marjinal foyda (F_m) hisobi usuliga asoslanadi (sof marja):

$$F_m = \text{Sof tushum} - \text{O'zgaruvchan xarajatlar}$$

Rentabellik nuqtasi- bu shunaqa sof tushum miqdoriki, korxona zarar ham ko'rmaydi, lekin foyda ham olmaydi:

$$R = \text{O'zgarmas xarajatlar} / (F_m / \text{sof tushum}) = \text{O'zgaruvchan xarajatlar} / U_f$$

Bu yerda U_f –sof tushumdagi marjinal foydaning ulushi.

Moliyaviy mustahkamlik zahirasi **MMZ** – bu summaga korxona foyda zonasidan chiqmagan holda sof tushum miqdorini kamaytirishi mumkin:

$$MMZ = \text{Sof tushum} - R, \text{ so'm}$$

Yoki sof tushum miqdoriga nisbatan – moliyaviy mustahkamlik **MM**:

$$MM = ((\text{Sof tushum} - R) / \text{Sof tushum}) \times 100, \%$$

Sof tushum miqdorining har qanday o'zgarishi foyda ko'rsatkichining yanada kuchliroq o'zgarishiga olib keladi – bu operatsion dastakning ta'ssuroti:

$$\begin{aligned} \text{Natija (foyda, zarar)} &= F_m - \text{O'zgarmaydigan xarajatlar} \\ \text{Operatsion dastak ta'sirining kuchi} &= F_m / \text{Natija} \end{aligned}$$

Rentabellik nuqtasidan o'tilgan holda umumiy xarajatlar summasida o'zgarmaydigan xarajatlar ulushi va operatsion dastak ta'sirining kuchi kamayadi. Aks holda, o'zgarmaydigan ulushining o'sishi operatsion dastak ta'sirini oshiradi.

8-jadval

№	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi(+,-)	O'zgarish sur'ati
1.	Sof tushum	Ming so'm	12437083	17767167	+5330084	142.86
2.	O'zgaruvchan xarajatlar	Ming so'm	5787700	4647900	-1139800	80.31
3.	Marjinal foyda Fm	Ming so'm	6649383	13119267	+6469884	197.3
4.	O'zgarimas xarajatlar	Ming so'm	4647900	4647900	0	100
5.	Sof tushumdagi marjinal foydaning ulushi Uf	Ming so'm	0.54	0.74	+0.20	137.04
6.	Rentabellik nuqtasi R		8607222	6280946	-2326276	72.98
7.	MMZ	Ming so'm	3829861	11486221	+7656360	299.91
8.	MM	%	30.79	64.65	+33.86	209.97
9.	Natija	Ming so'm	2001483	8471367	6469884	423.25
10.	Operatsion dastak ta'sirining kuchi		3.32	1.55	-1.77	46.69

Korxonaning zararsizlik tahlilini o'tkazishga, ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining foydaliligiga, moliyaviy mustahkamlik zaxirasi asosida rejalashtirishga, inqirozlikdan chiqib ketish optimal yo'lini tanlashga baho beradigan bo'lsak, sof tushum 5330084 mingga ya'ni 42.86%ga oshgan. Marjinal foyda esa basis yiliga nisbatan 97.3% ga o'sganlini ko'rishimiz mumkin. Bu degani korxonaning zararsizlik nuqtasi tahlilini amalga oshirish to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Korxonaning rentabellik nuqtasi esa joriy yilida 2326276 mingga kamayib, basis yiliga nisbatan 28.02% ga kamaygan. Korxonaning moliyaviy mustahkamlik zaxirasi esa 199.91 % oshgan. Bu esa korxonaning moliyaviy mustahkamlik darajasi bo'yicha ishlar yaxshi olib borilganligini bildiradi.

Korxonaning foyda yoki zarar ko'rinishidagi natijasini aniqlaydigan bo'lsak, u o'tgan yiliga nisbatan 6469884 ming so'mga (323.25%) foyda ko'rgan, ya'ni foyda ko'rsatkichi ijobiy natija ko'rsatmoqda. Ammo korxonaning dastak kuchi 1.77 (53.31%) ming so'mga kamaygan.

Yettinchi topshiriq

Tahlilning oxirgi maqsadi bajarilgan hisob – kitoblar natijasida korxonaning ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatiga umumiy baho berish va shuning asosida aloqa korxona faoliyatini yaxshilash tavsiyalari beriladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlil orqali har bir subyektda mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora – tadbirlari ishlab chiqiladi. Korxonaning iqtisodiy holatini tahlil qilish, korxona moliyaviy samaradorligini oshirishning muhim omilidir. Korxonaning iqtisodiy holatini tahlil qilish korxonaning ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashda yordam beradi, foydalanilmagan resurslarni davrda rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Bugungi kunda aloqa va axborot kommunikatsiya sohasidagi islohotlarni borishi avvalambor davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan davlat dasturining bajarilishini ta'minlash bo'yicha ishlar olib boriladi va buning natijasida bir qator ko'rsatkichlarga erishiladi.

Jumladan bizning korxonamizda ham ko'plab ko'rsatkichlarimizda yaxshi natijalar bergan. Joriy yili 1 kishiga to'g'ri keladigan aloqa korxonalarining xizmatlari darajasi 27.42%ga ko'paygan bo'lsa, asosiy faoliyatdan daromadimiz 6396100 mingga ko'paygan. Bundan tashqari, bir qator ko'rsatkichlar, mehnat unumdorligi, fond qaytimi hamda asosiy vositalar bilan qurollanganlik ko'rsatkichlarida ham yuqori ko'rsatkichlarga erishilgan. Bu asosan daromadning salmoqli oshgani bilan bog'liqdir.

Bizga ma'lumki, aylanma mablag'larning aylanish davomiyligi qancha kam bo'lsa, aylanish koeffitsienti shunchalik yuqori bo'lsa bu korxona uchun ijobiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bizning korxonada aylanma mablag'larning aylanish koeffitsientining ko'payishi o'z navbatida ularning aylanish davomiyligini pasaytirgan. Bu asosan korxonaga qo'shimcha aylanma mablag'larining jalb etilganligi bilan bog'liq.

Korxonaning joriy yilda olgan foydasiga qarab quyidagicha xulosa qilishimiz mumkin. Avvalambor, korxonada sof tushum anchagina oshgan. Shuningdek, xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda, asosiy faoliyatdan foyda hamda rentabellik ko'rsatkichlarimiz ham yaxshi natijalarni bergan. Rentabellik korxonaning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bizning korxonada rentabellik ko'rsatkichlari jami xo'jalik bo'yicha ham, sof tushum orqali hisoblaganda ham oshganligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkich kelgusida investitsiya jalb qilishda muhim ro'l o'ynaydi. Ammo 100 so'm daromad tannarxi joriy yili o'tgan yilga nisbatan kamayganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa korxona faoliyati uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Korxonaning zararsizlik tahlilini o'tkazishga, ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatining foydaliligiga, moliyaviy mustahkamlik zaxirasi asosida rejalashtirishga, inqirozlikdan chiqib ketishning optimal yo'lini tanlashga baho beradigan bo'lsak, sof

tushumning oshganligi o'zining yaxshi natijasini berganligini ko'rishimiz mumkin. operatsion dastak kuchi orqali korxona daromadlari ntijalarini rejalashtiradi va shu orqali xarakat qiladi. Operatsion dastak kuchi daromadlarini qancha oshirsak natijaning qanday o'zgarishini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda ushbu korxonaga takliflar mavjud. Korxonaning davr harajatlari xizmat ko'rsatish tannarxidan yuqori. Bundan ko'rinib turibdiki, korxona davr harajatlarini qisqartirishi lozim. Buning uchun, korxonaning ma'muriy bo'limidagi ishchilar sonini qisqartirish hamda, qolgan ishchilar malakasini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni. – T., "O'zbekiston" 2000.
3. I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish choralari va yo'llari". – T., "O'zbekiston" 2009.
4. Abdibayeva T., Mirzamurodov X.X., Qurbonov Z.N. "Buxgalteriya hisobining asoslari". Masalalar to'plami. T. : "O'zimbkonsentr" 2002y.
5. Abdullayev Y. A., Ibragimov M. Y. Moliyaviy tahlil: 100 savol va javob. T.: "Mehnat", 2001 y.
6. Bobojonov O. "Moliyaviy hisob". T.: "Sharq" NMAK, 2000 y.
7. Pardayev A.X. Boshqaruv hisobi. T.: "Akademiya", 2002 y.
8. "Boshqaruv tahlili", O'quv qo'llanma A.T.Ibragimov, M.Y. Rahimov T.: 2004-y
9. E. Ergashev. "Iqtisodiy va moliyaviy tahlil" T.: 2005 y.
10. Achilova S.P., Najbiddinov S.U., Nurmatova D. Kurs ishi bajarish uchun uslubiy qo'llanma TATU 2012-y.